

AHMAD A'ZAM

SOYASINI YO'QOTGAN ODAM

Hikoya

Öshanda menga nima bo'lganini özim ham bilmayman, buni hozir ham tushuntirib berolmayman. Hech narsa bo'lmagandek yuribman. Lekin bunga konikkunimcha juda ko'p narsalar bo'lib otdi.

Bir kuni chozma lag'mon eb otirgan edim, özimcha shundan koraman, birdan oyoqqolim boshashib, boshim bom-bosh bo'lib, ichim huvillab ketdi. Atigi bir-ikki soniya, özimni yoqotdimu darrov özimga qaytdim. Boshqacha tushuntirsam, tuppa-tuzuk, hamma qatori rostmana odam tuyqusdan oz mazmunini yoqotib, yana qaytib topgandek g'alati ahvolga uhradim, rostdan, birdan mazmunim chiqib ketib, yana qaytgandek bo'ldi. Shu holat lag'monning chilvirini qoshiqqa orab, og'zimga olib borguncha davom etdi. Bor gap shu. Özi tushlik desa, yuragim bezillaydi, yana aksiga olib sheriksiz chiqqanman. Bu holat shuv etib otib ketdi-yu, lekin kayG'iyatimni buzdi, ko'p ochin-toqin yuraman, toliqqanimdan dedim-da, bir amallab, lag'monni tamomladim. Ishga qol siltadimu ijaramga jonadim.

Xonamga kelib özimni oynaga soldim, ko'rinishim yaxshi, rangi royim joyida. G'aqat uyqu bosyapti. Karavotga chozilganim zahoti tubsiz quduqqa quladim. Shu uxlagandan ertasi kuni Oftob tikkaga kelguncha dong qotibman. Tiniqib uyg'ondim. Kecha bunaqa bo'lgani kechalari bilan uxlamay kitob oqishimdan, vaqtida yotib, vaqtida turish kerak, yoq esa, sog'liqqa ham, miyaga ham ta'siri bor, odam özini ayashi lozim, dedim. Ayvonga chiqdim, Oftob charaqlab turibdi. Ko'p uxlaganimga ko'zim sal achishayotganini aytmasa, hamma narsa hamishagidek. Hech e'tibor qilganmisiz, uyqudan turib, ko'p qavatli uyning ayvonigami, hovligami chiqasiz-da, atroG'ga ko'z solasiz, hech qanaqa ozgarish ko'rmaysiz, shamol yo bulut, qor yoki yomg'ir bo'lishi, havo aynishi mumkin, lekin dunyo ozgarmaydi, balki ozgarar, lekin ozgarishi yillab, on yillab choziladi, odamga bilinmaydi. Shunaqa, men qaraganda ham hamma narsa hamishagidek, hatto ayvonga chiqishimda ham ozgarish yoq, kecha yo bir yil oldin qanday qaragan bo'lsam, shunday qarayotgan edim. Lekin, bilasizmi, shu har doimgi muqimlikda pinhona bir ozgarish bo'lsayu siz buni kormasangiz yo nimanidir izlab chiqsangiz-da, shu izlayotganingizning nima ekanligini anglab ololmasangiz, bir narsani zor berib bilmoqchi bo'lsangiz-da, shu narsaning özi nima bo'lishi mumkinligini ham bilolmasangiz, konglingizga omonatlik kirib qoladi. G'alatiya? Men shunga aytyapman, odamning mazmuni yoqolganga oxshagan bir holat deb.

Men ana shunaqa bir holatda edim. Ayvonga bir aniq maqsadda chiqqanim yoʻq, shunchaki har kungi odatim, mana uyqudan uygʻondik, dunyoga yana bir qarab qoyaylik, oʻzimizni ham korsataylik deb qaradim. Dunyo ham – oʻsha-oʻsha, lekin shu korinishida oʻzining emas, mening oʻzgarganimni bilgi qilayotgan bir narsa bordek, shu kalavaning uchini topolmay, konglim doim oʻzi tayanib turadigan tayanchlarini yoʻqotib qoygandek omonat edi, agar tushuntira olgan bolsam. Ijarada bir oʻzim turganimdan emas, ana shu xayollar chulgʻab olgani, bu xayollar iskanjasida yakka ekanim va yonimda hatto hamxona doʻstim yashaganda ham, unga bu ahvolimni aytganim bilan, naGʻaqat u, doʻst, balki umuman hech kim tushunmasligi, hech birovga tushuntirib berolmasligim uchun ham mahkum yolgʻiz edim. Oʻzimni odamlar toʻdasiga urgim keldi, lekin bu toda ichida meni hech kim tanimasligi, begona ekanligimni konglim sezib, xonamdan chiqqim kelmay turardi.

Koʻchaga tushib, ishxonaga teleGʻon qildim, meni hech kim soʻramabdi, boshliq ham yoʻqlamabdi, hammasi joyida ekan. Nahotki, bir inson tushdan keyin ishdan ketib qolsa, ertasi kuni ishga bormasa, biron odam qiziqmaydimi, deb ham oyladim.

TeleGʻon goʻshagini ilib, endi yurayotganimda, Oftob charaqlab turgan edi, bir koʻzoynakli semiz yigit avval oyogʻim tagiga, keyin oʻzimga qaradi-da, hayron turib qoldi. Biron narsa ilashibdimi yo boshmogʻimni poyma-poy, yo shimimni teskari kiyibmanmi, degan xavotirda oʻzim ham oʻzimga qarab oldim - hech gap yoʻq. Bizda qiziq odamlar bor-da, baʼzilari notanishga ham xuddi odamyovvoyiga uchragandek baqrayib turaveradi, dedimu yoʻlimda ketaverdim. Negadir men shunaqalarga koʻp duch kelaman. Trolleybusdami, avtobus yo tramvaydami albatta bitta-yarim odam menga tikilayotgan boʻladi. Tikilgani bilan qarashida maʼno yoʻq, xuddi “Chipta olishni unutmang!”, “yukning bahosi on tiyin”, degan eʼlonlarni loqayd oʻqiyotgandek. Koʻchadagilar-chi, koʻzini qadab oʻtgani etmagandek, orqamdan ham tikilib qoladi. Oʻrganib ketganman, lekin semiz yigitning qarashidan gʻashlandim. Nariroq yurib orqamga oʻgirilsam, u hali ham menga qarab turgan ekan, yuzini burdi. Meni bir oʻzgarib ketgan eski tanishiga oʻxshatdi-yov, deb oyladim. Har ehtimolga qarshi yana u yoʻq-bu yogʻimga qarab oldim, yoʻq, hammasi joyida.

Qarshidan bir qiz kelyapti ekan, begonaga tikilish odobsizlik ekanini oylab borayotgan bolsam-da, yana bu qiz bola, koʻzimni uzolmadim: - kichkina, ingichka, yuzi choʻzinchoq, burgutcha burun, qirra iyagi katta, oʻziga yarashigʻli xunuk, yupqa qora charm kamzulcha, qora yubka boshmoqqacha, oyoq jonivor ham sibiziqday shekilli, qadam bosishida goh u yogʻidan, goh bu yogʻidan ochilayotgan lozimi... lozim boʻlib lozim, kolgotki boʻlib kolgotki emas, qora yupqa matodan, topiqqacha; pochasiga qalampirusxa, rangdor gul tikilgan, har xil tosh qadalgan, yuziga tushgan tola sochini kotarib qoyayotganda kordim: tirnoqlari ingichka, uzun-uzun ustirilgan, etdan tashqari qismi oqligicha qolgan, et usti qizgʻish boyalgan, qulogʻiga qaramabman, sirgʻalarini sochi yopgan shekilli, lekin xivich barmoqlarida ikki-uchtadan, toshi mayda, men Gʻarqiga bormayman, balki

olmosdir, uzuk. Mo'jazgina urg'ochi yirtqich! U menga bir qarab qoydi-da, bir qadam chetlanib otdi. Xuddi men uni eb qoyadigan bir mahluqdek. Shunda, hamma kiyimi qora bolganigami, xayolimga bu qiz shu qiz emas, balki biron qizning guldor soyasi, degan bir qiyos keldi.

Soya degan narsa ayni shu vaqti xayolimga bekorga kelmaganiga haligacha hayronman: odamning shuuri uning o'zi bilmagan narsalarni ham sezar ekan.

Shu kuni ul-bul egulik olib yana ijaramga qaytdim, chozilib yotib kechgacha oqdim, turib shiG'tdagi neonchiroqning elas-elas g'ong'illashi ostida yozuvchizuv bilan alla-pallagacha otirdim. Har kungidan sal g'alatiroq bolgandek edi, diqqat qilmabman, keyinroq, ahvolim oydinlashgandan song bildim, bilmaganim ham yaxshi bolgan ekan, qoq yarim tunda aqlim ozishi hech gap emas edi.

Bu kunisi ishxonaga keldim, boshliq huzuriga kirib, kecha "sal maza qochib" kelolmaganimni aytdim, koyisa kerak, deb oylagan edim, aksincha, hamishagidek ilajayib: "Hay-hay! Qoying shu maza-pazalarni, kasal bolmang sira", dedi, soqqabosh yigitning bunday yurishi yaxshi emasligini gapirib, bir oz nasihat oqidi. Mendayligida uylanmay yurib, hozir jabrini tortayotgan, osha paytlari G'aqat ishga qarab, o'ziga qaramagani uchun hozir goh u eri, goh bu eri og'rib turar ekan, hay-hay. "Men soqqabosh emas, boydoqman, xolos, ikkovi ikki narsa!", deb aytay dedim-u, menga yaxshilikni sog'inyapti-ku, deb ichimga yutdim.

Ha-ya, aytmabman, ikki qavatli ishxonamizning derazalari Oftobga teskari, Oftobni bizdan toqqiz qavatli ministrlk to'sib qo'yan, shuning uchun bizda kunduzi ham chiroq yonadi, hamma chiroqimiz "dnevnoy" - neon, bular hamma narsaning soyasini yoyib yuboradi. Lekin ma'lumotnoma yozayotganimda stolning usti odatdagidan ravshanroq edi, bunga ham diqqat qilmagan ekanman.

Tushda Barot ikkovimiz birga tushlikka chiqdik. Menga bir narsa bolganini shu Barot bilib qoldi. U uch yilcha oldin kochadan hamyon topib olgan. Sakkiz yuz qirq etti som. Shundan beri erga tikilib yurishni odat qilgan.

Ishxonamizning soyasidan chiqib, sal yurganimizdan keyin mening gaplarimga ha-hu deb erga qarab ketayotgan Barot bir toxtadi-da, dabdurustdan: "Iy-e, sening soyang qani! Qizig'-u!", deb qoldi. Avvaliga Barotning gapini tog'ri tushunmadim, "Shu ham hazilmi", demoqchi bolib, beixtiyor erga qarasam, mendan erga soya tushmayapti! Tuyqusdan kallamga bir narsa kelmadi. Lekin, mana, soya, mendan tushgan soya yoq! Oftob tomon bolsa kerak degan ilinjda osmonga qarab, keyin soya tushadigan joyni moljal qilsam, oppoq! ya'ni oqarib ketgan asG'al tning o'zi! Oftob mendan toppa-tog'ri otib, erga tushyapti, ortada men yoq! Barotning oyoqdan boshlangan, boshi ham dompayib turgan soyasi bor. Oftob tikkada charaqlab turgani uchun kalta, girdig'um, lekin, har qalay, odamning soyasi-da! Meniki esa yoq! Rostdan yoq! Dovdirab qoldim-u, lekin bolishi mumkin emas, ikkovimizning ham kozimizga shunday korinyapti, hozir soyam lip etib erga tushadi, degan bir mustarlik ham bor. Bema'nilik-da, axir, shunaqasi ham boladimi?

Barot hech qachon chuqur oylamaydi, hozir unga qiziq, juda qiziq. "Qoyil-e! e-e, zor!" deydi nuqul. Men bilan ishi yoq.

Birdan bolsa-da, odamning xayoliga kop narsa kelar ekan: hamma boshqa, men boshqa bolib qoldim, odamlar orasidan chiqib, boshqa dunyoga otib ketdim, lekin shu dunyoda yashayman, shu dunyoda odamga oxshab yuribman, lekin odamlarga oxshamayman, hamma rosmama odam, men esa... AtroG'imga qarayman, hu, ana, tosh bolsa ham, haykalning soyasi bor, daraxtlarning tagi quyuc kolanka, kochada mashinalarning soyasi yonida hilpirab ketyapti, trolleybus simlariniki kochani chizib ketgan, simyog'ochiniki yolga kondalang, Barotning soyasi ozi bilan, qadam bossa, u ham odimlaydi, qolini silkitsa, u ham qimirlaydi! yonimizdan otib borayotgan odamlarning hammasining tagida soyasi bor! Men... nega bunaqa?!

Oylab oyimga etolmayman, Barotga bir narsa deyay desam, tilimga gap kelmaydi. Barot "Qizig'-a, nega bunaqa bolyapti?", deydi. Barot shunaqa savol berdimi, javobini aytsangiz ham, bari bir, tushunmaydi. Savolinig ozi "Mana, men shu ergacha zorg'a keldim, u yog'iga yaramayman", degani, oylaganining chegarasi shu. Shuning uchun: "Ha-e, tezroq yuraylik, qorin ochib ketdi", dedi.

yurib boryapman, shu paytgacha oyog'imga lip-lip ilashib ergashgan soyamning joyiga qarayman, hech narsa yoq, shunga xuddi oyog'im ham erga tegmayotganga oxshaydi. Shunday qilsam soyam mendan ajralib yalp etib erga tushib qolar degan ilinjda, uch-tort marta sakrab-sakrab ham kordim, G'oyda chiqmadi. Barot: "Ha?" dedi, "Kecha chomilganimda quloqqa suv kiribdi", dedim.

Birdan Mashhurani oylamaganim esimga tushib qoldi. Boyadan beri yana bir narsa xayolimni chimdilab kelayotgan edi, birdan yuzaga chiqdi, agar soyam shu bilan yoqolib ketaversa, ahdu paymonimiz nima boladi? Odamlardan buni yashirib bolmasa, nima kop quyoshli kun! Kochada soyasi yoq yigit bilan ketayotganini korgan odamlar menga emas, Mashhuraga achinadi, bechora qizning bir nuqsoni borki, soyasi yoq yigit bilan yurishga konibdi, deydi. Uchrashaylik, desam, bundan keyin: "Kechirasiz, hali ham sizni yaxshi koraman, lekin soyasi yoq yigit bilan qanday yuraman?", desa-ya. Nima, kochada qolgan qiz emas, aytishi mumkin.

G'ikru oylarim chuvalashib ketganu ozim xuddi oyna ustida sirg'alayotgandek ketib boryapman. Tagingizga soyangiz tushib turmasa, muallaq bolib qolar ekansiz!

Barotning xayoli esa ovqatda: "Nega hamma lag'mon bir lag'mon, Xalil moylovniki boshqacha?", dedi. "Qoy shu lag'monni, ozimning lag'monim chiqib turibdi-ku", dedim. "e-e, kim qaydagi narsalarni oylaysan-a, - Barot shunday deb oyog'im tagiga qarab qoydi: - Hali ham yoq. Hay, bolmasa bolmapti-da". Aytdim-ku, Barot shunaqa haG'taG'ahm deb. "Ke, qoy, odamning soyasi boldi - nima, bolmadi - nima, - deb menga yana taskin berdi u. - eng asosiysi, odamning ozi bolsin. Mana borsan, soppa-sog'san, yuribsan. Etadi shu!" Tonkaning G'alsaG'asini qarang!

Kochada odamlar otibqaytib yuribdi, hamma o'z tashvishi bilanmi, bizga bir-da-yarimi ko'z tashlab otgani bilan, uncha ahamiyat bermaydi. Har ehtimolga qarshi Barotning bu yoniga - Oftob tomonga otdim: Barotning soyasi ikkalamizga ham otadi. Barotning elkasi Oftob, mendan soya tushmayapti. Shu vaqti bir G'ikr kelib, hayajonlanib ketdim. "Toxta-chi!", dedim. Barot toxtab menga qaradi. "Mendan Oftob korinyaptimi?", deb soradim. Barot tushunmadi: "Oftob? Ana osmonda-yu! Senda nima qiladi?", dedi. Boyim Barotdan uzunroq, uning betini boshimning soyasiga mo'ljal qilib: "yaxshilab qara, yuzimdan Oftob korinyaptimi, yoqmi?", dedim. Barot yuzimga tikilib turdi-da: "Yoq, - dedi. - Beting joyida. Nega Oftob korinishi kerak, beting teshik emas-ku. Ke, qo'y shu gapni, odamni jinni qilay deyapsan". Barot menga g'irt begona korindi. U bari bir tushunmaydi. Axir, soyam bolmasa, demak, Oftob nuri toppa-tog'ri otishi, unda o'zim ham bolmasligim kerak-ku! Boshim Barotning ko'ziga soya solmasa, unda Barotga yuzimning ornida ham Oftob korinishi kerak emasmi? yuragim oynab ketdi, juda g'alati: Oftob bilan Barotning ortasida tursam ham u meni koryapti, demak, men Oftob tosyapman, unda soyam qayoqqa ketadi? Bosh qotdi. Bu yog'i nima boladi endi, kimga qanday tushuntiraman?

Odamlar nima deydi? Ishxonadagilar... Xayol ke-etdi!

Boshliq chaqirtiradi-da, iljayib: "Xo'osh, ukam, nima qildik? - deydi. - Ishlayvering desam, ahvol bunaqa, ishdan boshang, desam mehnat qonunini - KZOTni buzganingizcha yoq, lekin ichimizda boshqacha odam bolishi... Hay-hay, yo o'z ixtiyoringiz bilan ariza yozasizmi, a?". Men boshliqning iljayishini yomon ko'raman, xuddi boshqa bir begonaning iljayishini rasm solib, yuziga taqib olganga oxshaydi. "Mayli-ku-ya, nima aybim uchun?", deb sorayman. Boshliq: "Ukajon, tog'ri tushuning, raykomdan "Sizda bir soyasi yoq yigit bor ekan, nega chora ko'rmayapsiz, nega ushlab turibsiz?", deb sorashsa, nima deb javob beramiz? Siyosiy tus olishi mumkin", deb iljayadi. "Nega, axir, soyam yoqligi siyosiy xato emas-ku?!", deyman hamma narsani tushunib turgan bolsam ham. Boshlig'imiz endi mayin iljayadi: "Unday demang, hay-hay, bizda hamma masalaga siyosiy qaraladi-ya, men shu xatoning oldini olaylik, deyman, hali siyosiy xatoga osib chiqmasdan". "Bunga raykomning nima aloqasi bor? Ularning shundan boshqa qiladigan ishi yoqmi? Nahotki soyam yoqligi bilan shug'ullanishsa?", deb chin kongildan sorayman. "Hay-hay, aytmadimmi? Hazillyapsizmi? - deb rahbarimiz yana iljayadi. - Bilsangiz, ukam, hammamiz partiyamizning panohida va... doimiy g'amxorligidamiz". "Ishdan boshasam, keyin menga qanday g'amxorlik qiladi?", deb sorayman. Boshliq bir derazaga qarab olib, menga egiladi: "Yoq, ukam, hamma erda partiyamiz panohida bolasiz! - deb endi sovuq iljayadi. - Sizga yaxshi yo'l korsatgan edim-a, hay-hay, endi kollektivga qoyishga tog'ri keladi"...

Majlisni, albatta, boshliqning o'zi ochadi: "Jonajon partiyamizning hayotbaxsh qarorlaridan ilhomlanib, kollektivimiz keyingi paytlari katta yutuqlarni qo'lga kiriyapti... (hokazo-hokazo)... Mana, hammamiz o'z soyamizga egamiz. Lekin oramizda soyasi yoq odamning paydo bolgani, tog'rirog'i, uning o'z soyasini yoqotib qoygani bizni jiddiy oylantiryapti. Hali yuqori organlardan bu borada

korsatma olganimiz yoq, lekin shunday korsatma olishga aminmiz. Buning uchun u yoqqa tashabbus bilan chiqishimiz, bu masalani oz kuchimiz echishimizni aytishimiz kerak... Qani, kimda qanday G'ikr bor?" Birinchi Mirqosim aka soz oladi: "Kopdan beri shu bolada gumonim bor, buning ideologiyasi buzuq deb partkomimizga ham aytganman. Chunki g'oyaviy yot, bema'ni adabiyotlarni kop oqiydi. Aksariyati chet elliklarniki. Bir kuni xonasiga kirsam, stoli ustida Xeminguey, G'olkner degan amerikaliklarning kitobi turibdi ekan. Hey, uka, yosh joningni oylamaysanmi, nima qilasan antipartiyaviy kitoblarni oqib, desam, bular bizga dost progressiv yozuvchilar-ku, deb ustimdan kulgandek boldi. Axir, osha chet ellik yozuvchilar chet elda yashasa, osha yoqda ham o'zining kompartiyasiga kirmagan bolsa, yozganlari antipartiyaviy bolmay, nima boladi? Men oqimayman shularni, shunga, mana, o'zim ham, kalam ham sog'". Partkomimiz G'ulom aka siyosiy hushyor, lekin bama'ni odam, ensasi qotib: "Mirqosim aka, masaladan chalg'imaylik!", deydi. "A, men nima deyapman? – deb bosh kelmaydi Mirqosim aka. – Masalaning g'irt o'zini gapiryapman-ku. Bolmasa aytdim-a sizga: qarang, shu bola har xil narsalarni oqiydi, dedim, qaramadingiz! Axir, osha yozuvchilar bizga dost emas, dost tbolsa, nima uchun jonajon partiyalari saG'ida emas, bor-ku, bor-ku, Gesxol degan ortiq boshqaradi, yoq kirmaydi, chunki dost emas. Kapitalizmga yashaydi ular, yaxshisining ham ham qonqoniga buzuq ideologiya singib ketgan. Mana oqibati, universitetni bitirgan, kelajagi porloq yigit idealizm g'oyalari ta'sirida aynib otiribdi!". G'ulom aka vazmin jilmayib tushuntirmoqchi boladi: "Oshalarni men ham oqiganman, asarlarida hech qanaqa g'oyaviy buzuqlik yoq. Ana, o'zimizning kutubxonada ham bor, olib oqib ko'ring!". Mirqosim aka: "Oqimayman, kutubxonada bor deb hamma narsani oqiyveradimi?!", deydi. Boshliq qalam bilan suv tola graG'inni uradi, graG'in toqillaydi: "Ortoqlar, masalaga qaytamiz: kim gapiradi? Mirqosim aka, boshqalarga ham navbat bering!". Botir aka soz oladi: "Men boshlig'imizning gapidan shuni tushundimki, bu yigitga oramizda orin yoq ekan. Nega? Soya yoqligi uchun! Mirqosim buni g'oyaviy buzuqlik, deyapti. Og'zim bor deb gapirib, o'zimiz xato qilmaylik-da. Mana, bir vaqtlar shunaqa gaplar bilan qancha shoir, yozuvchi, siyosiy arboblarmiz qamalib, otilib, keyin reabilitasiya boldi. Bu yigitni uch-tort yildan beri bilamiz, yaxshi yigit, lekin, tog'ri, kop oqiydi, ammo kop oqigani uchun kop narsani biladi. Mana, soyasi yoqolib qolibdi, lekin shu bilan yomon odamga aylanib ketdi, desak, xato qilib qoymaymizmi? Balki boshqa qobiliyati ochilgandir? Shaxsan mening bu masalada oz G'ikrim bor: yuragi toza, konglida kiri yoq, oq, niyati yaxshi – yorug', shuning uchun undan erga qora soya tushmaydi". "Hay-hay, - deydi boshliq. – Bizlar-chi?". "Nima bizlar?", deb tushunmadi Botir aka. Boshliq iljayadi: "Bizlarning yuragimiz qora ekan-da unda? Shunaqa demoqchimisiz? Butun kollektivga qora suy kayapsizmi?". Botir aka g'uldirab qoladi: "Hech kimga qora suy kayotganim yoq", dedi. "Suy kayapsiz! – Boshlig'imiz asabiylashsa qat'iy iljayadi, xuddi yig'lamsirayotgandek bolib qoladi. – G'aqat kollektivimizga emas, butun jamiyatimizga qora chaplayapsiz! Chunki hammaning soyasi bor, bu yigitniki esa yoq! Siz hali javob berasiz bu gapingizga!". Shu payti Turobjon sakrab turib: "Ortoqlar, menda bitta takliG' bor.

Og'aynimizni invalidlikka chiqarib yuboraylik!", deb qoladi. Hamma angrayadi, hatto boshlig'imizning og'zi ochilib, Turobjonga baqrayadi. "Tushunmayapsizlarga? - deydi Turobjon. – Oyog'i yoq odam invalid bo'ladimi? Soyasi yoq bo'lsa shunday-da! eng yaxshi yoli shu". "Mumkin emas, - deydi kadrlar bo'limi boshlig'i Zuhra opa. – Mehnat qonunlarida bunaqa band yoq". Toxtagan bahs yana qiziydi. Mirqosim aka vag'illayotganda unga qarab turib bir narsaga e'tibor qilgan edim: o'zining ham soyasi yoq edi. Uning ham, otirganlarning ham – birortasining soyasi yoq, chunki neonchiroqdan soya tushmaydi, Oftobga chiqqanda paydo bo'lsa ham, lekin hozir hammasi men qatori. Soyalari yoqligi o'zlariga xalal bermaydi-ku, nega men bularning qatorida, kollektivda bo'lmasligim kerak, deb o'ylayman... Oxiri yana G'ulom aka soz oladi: "Ortoqlar! Masalani juda chuvalatib yubordik. Bunaqada bir qarorga kelolmaymiz. Bir oylab koraylik: hozir bu yigitni ishdan haydash haqida qaror chiqarsak, u ko'chada qoladi, unda chindan ham har xil ta'sirlarga beriladi, g'oyaviy-ahloqiy buzilishi mumkin. Keyin u oldin ishlagan kollektiv qayoqqa qaragan edi, partiya komiteti nima uchun o'z vaqtida chora ko'rmagan, degan savollar chiqadi. Biz bunga yo'l qoya olmaymiz, chunki partiyamiz har bir insonni o'ylaydi, uning g'oyaviy og'ishqing'ayishlariga yo'l qoymaydi, nazoratda tutadi. Tog'ri oramizda yot unsur bo'lmasligi kerak, bu yigit soyasi yoqligi bilan oramizda yot, lekin hali unsur emas. Keling, uni o'z tarbiyamizga olaylik, soyasini topishga muhlat beraylik. Topolmasa, ko'pdan quyon qochib qutulmas, soyasini joyiga qotirib qoyamiz! Bu erda bo'lgan bahslar shu eshikdan chiqmasin, ma'qulmi, nima dedingiz?". Botir aka: "e-e, otangizga rahmat! Bu – aqlli odamning gapi!", deb yuboradi. Boshliq darrov tashabbusni o'z qo'lga oladi: "Rahmat, ortiq Ahmedov, keling, endi masalaga yakun yarasak-da, bir qaror chiqarsak. Bir komissiya tuzsak! Komissiya bu yigitning soyasi yoqolish sabablarini organsa va soyasini yana paydo qilish tadbirlarini ishlab chiqsa-da, navbatdagi yig'ilishda hisobot bilan chiqsa, nima dedingiz?", deydi. Bahsdan boshi g'ovlagan hamma uning gapini ma'qullaydi, boshliq mayin iljayadi, G'ulom aka sovuqqina jilmayadi, shu bilan yig'ilish tugaydi.

Keyingi voqealar aynan bo'lmasa-da, shunday kechdi.

Turgan gap, ishxonadagi gap-so'zning hammasi, men, ya'ni soyam yoqligi haqida bo'ladi. Neon chiroqlar yonib turadigan ichkaridagi davralarda hamkasblarim yoq soyamni chiqib qolarmikan degan umidda kozi bilan paypaslaydi, ko'chaga chiqsam, tekin tomoshaga gurr etib ergashadilar, ishi zarillari derazadan boynini chozadi, ana-ana deb, qo'llari bilan korsatadi. Bular borib uylariga, og'aynilariga "Bizda shunaqa antiqa odam bor!", deb maqtansa kerak, boshqa ishxonalardan ham odamlar kelib: "Og'ayni, iltimos, otinib sorayman, bir Oftobga chiqing, soyangiz yoqligini o'z ko'zimiz bilan koraylik", deb xiralik qiladi, hatto ba'zilari pul qistirmoqchi ham bo'ladi. "Yoq narsaning nimasini korasiz?", deb unamayman, ishdan chiqishimni poylab ko'chada turaveradi. Bir-ikkita salobatli boshliqlar kelib meni ko'rib ketdi, tavba, deyman, kap-katta odamlar, boshqa qiladigan ishi yoqmikan? Tushlikka yaqin pastda qora moshin korinsa, bas, bilaman, hech bo'lmasa, birontasi kelgan bo'ladi, yonida shotirlari bilan. Tushmayman, kutadilar, u yoq-bu yoqqa betoqat yuradilar, oxiri bittasini ichkariga

yugurtiradilar. Boshliq kaG'larini xursand ishqalagancha iljayib mening xonamga keladi: "Qani, tushdik, Samijon Salimovichning o'zlari keptilar!" "Tushmayman! – deyman. – Jonga tegib ketdi-ku! Maymun o'ynatyapmanmi?" "Hay-hay, ukam, shundoq baobro' odam sizni korgani kelsayu siz xursand bo'lish orniga... - deydi boshliq - Sizdan nima ketdi, tushib, on qadamcha aylanib. yana qaytasiz, vassalom!" Tushsam, haligi Samijon Salimovich degani coyam yoqligini korgani kelganini yashirib, o'zini arxitektor korsatadi: "Da-a, tog'ri, bino eskirgan, ministrlikning orqasiga xunuk yamoqdek bo'lib turibdi", deydi, viqor bilan gapirishga urinadi, lekin tovushi titrab ketadi – kozi mening oyog'im tagida, o'zimga qarashga qorqadi. yosh bolaga oxshaydi bular! Bir kuni bir kattakoni kelibdi, derazadan kordim: rangi sovuq, gapirmaydi, atroG'da besh-oltita bir xil silliq kiyingan, galstuk taqqan kulrang kost yumli yigitlar, nuqul atroG'ga alanglaydi. Yigitlaridan birovi unga egilib, bir narsa soragan edi, u boshini silkitdi. "Opchiq!" degan shekilli, birpasda rangi o'chib boshlig'imiz xonamga kirdi. "Tashqariga chiqaylik! Lekin, iltimos, hech kimga qaramay, tog'ri kocho'ning u tomoniga otib ketaverasiz!". Korgani kelganlarga organib qolganman, lekin bunaqasiga duch kelmagan edim. "Nega? Toxtamaymi, men bilan gaplashmaydimi?", deb hayron bo'lgan edim, boshlig'imning betidagi iljayish rasmi tirishib ketdi: "Hay-hay! Sizni korgani kelishganini zinhor-bazinhor bilmasligingiz kerak!", deb g'alati gap qildi. "Qanday bilmayman, aytib turibsiz-ku!", dedim. "e-e, ukam, hozir hayotingiz hal bo'lishi mumkin! Aytganni qilsangiz-chi!", deb boshlig'im sal bo'lmasa yig'lab yuborayozdi. Xop dedim, kelishib oldik: avval u chiqadi-da, mening qanday qilib ishxonaning eshigidan ko'chaga qarab yurishimni korsatadi, keyin men u nima qilsa, shuni takrorlayman.

Men eshikning ichkarirog'idan qarab turdim, haligilar ham ko'rinib turibdi, boshliq chiqdi, atroG'da xuddi hech kim yoqdek g'odayib alanglamoqchi edi, haligilarga kozi tushib, kalovlanib qoldi-da, tekis erda qoqilib, soyasining ustiga yiqilib tushay dedi, o'zini o'nglab oqday uchib ko'cha tomonga otildi. Haligi kattakon boshlig'imizni soyasini yoqotgan odam shu deb oylagan shekilli, haG'salasi pir bo'ldi, yonidagiga qaragan edi, unisi meni taniydi shekilli, sezilar-sezilmas bosh chayqadi. Keyin men chiqdim, bamaylixotir boraverdim, ko'z qirimda koryapman, ularning kozi menda, hammasi yaxshi edi, Oftobroyaga chiqqanimni bilaman, haligi kattakon: "O-o chort! Sgni, satana!", deb choqina ketsa bo'ladimi! Rangi sovuqligiga qaramay, o'zi kongilchanroq ekanmi, yomon bo'lib qoldi deng! Ikkitasi yugurib kelib, uni suyadi, bittasi ichkariga chopdi. Juda katta amaldor ekan, hammasini tipirchilatdi. Ichkariga chopgani bir stakan suv olib chiqdi. Men ketarimni ham, ketmasimni ham bilmay qotib turibman. Kattakonga dori ichirishdi, u o'ziga kelgandan meni sekin imladi. Men oldiga bordim. U menga qarab turdi-da: "Chelovek kak chelovek, da pust jivyot. Tol ko smotrite za...", deb u yog'ini aytmadi, men o'zimcha tushundim.

Soyam yoqligi ancha vaqt kabinetlarda, xonalarda, dolonlarda, tushliklarda, o'zim borimda ham, yog'imda ham kop muhokama, tortishuv-bahslarga sabab bo'lib yurdi. Ishxonamizga jon kirdi, masala bitta va buning chorasi yoqligi, chora topish hech kimning qolidan kelmayotgani uchun hammaning boshi qovushdi,

umumiy chorasizlik hamkasblarni ahil, bir-biriga qandaydir mehribon ham qilib qoʻygan edi. Ilgari ishga qatnashim ertalab kelganlarga eshik oldida “temir daG’tar”ga qoʻl qoʻydirib, keyin xonalarga bir-bir bosh suqib chiqadigan, kechqurun ketayotganlarga, endi xonasida qoʻl qoʻydirib qoladigan Zuhra opamizni qiziqtirgan boʻlsa, endi kelishim bilan hamma meni koʻrgani kiradi, chin koʻngildan sog’lig’imni soraydi, ketayotganimda jor boʻlib yaxshi tilaklar bildirib xayrlashadi.

G’ulom aka ikki kundan keyin meni kabinetiga chaqirib, suhbatdan otkazdi. “Men sizning yurish-turishingizda bir G’avqulodda narsa kormayapman. Lekin, bari bir, negativ hodisa. Raykomdagi ortoqlar bilan maslahatlashdik, ishlayversinchi, deyishdi. Organishadi sizni. Ozingizga qarang. Har kim bilan gaplashmang. Keyin... osha yozuvchilarning asarlarini oqimay turing, ma'qulmi?”, dedi.

Ozim ham shu ortada oylab yurgan edim, chunki odaning soyasi yoqligiga tegishli u-bu narsalarni oqigandek edim. Xemingueyning bir asarida “Oftob charaqlab turmasa, matadorning soyasi yoq odamdan G’arqi boʻlmaydi”, deb yozilgani esimda. yana qaysidir kitobda oqiganman: G’ransuz shoirlaridan biri, Mallarme boʻlsa kerak, balki Rembodir, ortog’i bilan yolda ketayotib, soyasiga qaragan-da: “Hozir shu soyamni sholchadek yumaloqlab, qoʻltig’imga olsam, nima deysan?”, degan. Shoirlar, bilasiz, shunaqa tesha tegmagan gaplarni gaplarni topadi, buni aytgan shoir ham soyasini yumaloqlab, qoʻltig’iga qistirmagan-u, lekin “Soyasi yoq odam”mi, “Soyasini yoqotgan odam”mi degan doston yozib shuhrat topgan ekan. Dostonni, turgan gap, ruschaga tarjima qilinmagani uchun, oqimaganman, G’ransuzchani esa bilmayman. G’aqat bir kitobda u haqda yozilganiga koʻzim tushgan: kambag’allarning soyasi oriq, boylarniki semiz ekani haqida aytilgan ekan, lekin qaysi kitobda – bu ham esimdan chiqib ketgan, lekin bu ma'lumot sahiG’aning oʻzida emas, pastidagi “snoska”da edi. Dunyoda kitobdan koʻpi yoq, qaysi birining nomini yodingda saqlaysan. Lekin soyam yoqolib qolgandan keyin shu oqiganlarim esimga tushib, uydagi tort mingdan oshiq kitoblarimning hammasini bir boshdan titib, osha kitobni axtardim, topilmadi. Lekin ularda, bari bir, hayotda haqiqatan ham soyasini yoqotgan odam haqida aytilmagan-ku. Tashbeh, oxshatish, xolos. Meniki esa hayotda boʻlyapti, soyam haqiqatan yoqolib qoldi.

Balki, balki... mening soyamning yoqolishi bilan osha shoirning soyasini yoqotgan odam degan dostoni qandaydir robita bordir? ya'ni osha shoir xayolida soyasini yoqotgan odamni oylab topgan, bu odam uning dostonida yashagan, bu dostonni bir adabiyotchi oqib, uni kitobiga kiritgan, u kitobni boshqa adabiyotshunos oqib, maqolasida tilga olgan, bu maqolani yana boshqasi oʻz kitobidagi “snoska”da eslatgan, buning kitobi oʻz navbatida rus tiliga tarjima qilingan, men shu tarjimani oqiganman, oqiyotganimda osha shoirning soyasi yoq odami dostonidan kitobga, kitobdan maqolaga, yana kitobga, keyin tarjima kitobga, undan menga oʻtib qolgan-da, bir necha yildan keyin mening soyamni yoqotgan, ya'ni osha soyasi yoq odam osha shoirning xayolidan, yoq, dostonidagi botiniy shuuridan dostonni oqigan adabiyotchining botiniy shuuriga, undan boshqasining, oxiri tarjimonning botiniy shuuriga, undan esa... mening botiniy shuurimga emas,

hayotimga otib qolgan. Topori g'oyaviy Mirqosim aka, umuman, kitob oqimasa-da, shu ma'noda haq bo'lib chiqadi: oqiganlarim menga ta'sir otkazgan... G'irt bema'nilik, lekin hech boshqa ma'nili izoh topolmay, miyam qaynab ketadi! Bunaqa gaplarni hamkasblarimga aytmayman, chunki soyam yoqolgani etmagandek, meni aqldan ozganga chiqarishlari ham mumkin.

Shusiz ham o'zi hammasi men bilan shug'ullanyapti. Soyamni yana paydo qilish uchun komissiya ishlayapti, meni bir juda tajribali proG'essorga korsatishdi. Oqsoch, basavlat odam ekan, chirt uzilib ketay deb turgan ko'ylagining tugmalari tagidan qornining juni ham ko'rinib turadi. Tizzalarimga rezinka bolg'acha bilan urdi, qorachig'imni u yoqqa qarang, endi bu yoqqa deb rosa tekshirdi, qovog'imni chappa qilib kordi. "Ko'p oqiysizmi?", dedi. Men umidlanib: "Ha, ko'p oqiymen, ko'p oqishdan ham soya yoqolishi mumkinmi?", dedim. "e-e, yog'-a, jinday toliqish bor, boshqasi hammasi normada. Oqiyvering. Mana, biz oqib proG'essor bo'lganmiz, soyamiz yoqolmagan-ku", dedi. Keyin negadir: "Ichingiz qotmaydimi?" deb qoldi. "Nima edi?" dedim – har bir savolidan umid qilyapmandam. "Ko'p o'tirib kitob oqigan odamda ich qotish bo'ladi", dedi proG'essor bamaylixotir. "Yoq, menda unaqa emas", dedim. "Ta-ak, oilangizdan hech kimning soyasi yoqolmaganmi? Vaqtincha bo'lsa ham?". "Yoq", dedim. "Ajdodlaringizda-chi? Bobo, buvi, ammo, xola, xullas, hammasida?", deb soradi. Sal naG'soniyatimga tegdi, "Yoq, bo'lmagan! Men ruhiy kasal emasman-ku, domla!", degan edim. "Shunday, - proG'essor jahlinga parvo ham qilmay. – Lekin biz hamma tomonni sorashimiz kerak". Oxir-oqibat, proG'essor menga hech qanaqa tashxis qoya olmadi, komissiyaga o'zimning oldimda: "Bu juda noyob hodisa, zamonaviy tibbiyotda bu hol ko'rilgan ham", dedi. Buni o'zim ham bilardim. Lekin komissiya degani bari bir tadbirlar tuzishi va shu haqda hisobot berishi kerak, bir marta yig'ilish otkazib, menga shu tuzilgan tadbirlarni oqib berdilar. Asosan, "ortoq G'alonchi G'alonchievning soyasini topish masalasi har taraG'lama chuqur organib chiqilib, qat'iy zora tadbirlar ishlab chiqilsin", deganga oxshagan odatiy gaplar. Meni hayron qoldirgani shu bo'ldiki, mehnat intizomimni qat'iy nazoratda ushlab chora-tadbirlari ham bor ekan. "Ishga shusiz ham o'z vaqtida kelib-ketaman-ku", dedim. "endi, ortoq, shu modda bo'lmasa bo'lmaydi", deb uqtirishdi. "Ma'qul", dedim. G'aaqat endi bechora Zuhra opa meni poylayman, har kungi dokon kezishlaridan mahrum bo'lar ekan.

Lekin mening soyam yoqolgani bir tomondan ishxonadagi mehnat intizomini yaxshiladi. Ishxonadagi hayot men tuG'ayli qiziq bo'lgani bois, hamma, yangilikdan quruq qolmay deb ishxonaga o'z vaqtida keladi, vaqtdan otkazib ketadi. Hatto boshlig'imiz yuqoridagi rahbarlar meni korgani kelib qolishini oylab, ishxonadan qimirlamaydi, amali bundan karra ko'tarilib ketgandek, yurish-turishlari ham o'zgarib qolgan, lekin menga quyuk muomala qiladi, xonamizga ham kirib: "Xosh, ukam, qalay, hali ham yoqmi?", deb soraydi, ishdan boshatishni xayoliga ham keltirmaydi, aksincha, hatto, bir-ikki odamdan eshitdim, men bilan G'axrlanar ham emish, "Shu yigitni asrashimiz kerak, bir xosiyati bor", degan emish bir joyda. Tog'ri-da, meni deb u rahbar bo'lgan ishxona og'izga tushdi. Tumonat odam kelib ketyapti.

Boshlarida odamlardan qochgani joy topolmay yurdim. Korgani kelishgani etmagandek, kun-kunora choyxonaga sudraydilar. Buni qarang, ishxonamizdagilar boshqa joydagi joralari bilan odamning soyasi bolmasligi mumkinligidan oshga garov oynab, turgan gap, albatta yutib chiqadi. Avvallari jahlim chiqdi, lekin oylab korsam, hamkasblarim meni soyasi yoq deb qatordan chiqarib tashlamayapti-ku. aksincha davralariga olyapti, choyxonaga borishning nimasi yomon, yosh men uchun boladi-ku!

Borib-borib keyin hammasiga organdim, qarangki, keyin odamlar ham konikdi: yoq narsani tomosha qilaverishning qizig'i qolmadi. Oldinlari qachon soyam yoqligidan gap ketsa, Barot osha erda bolalar, "Ikkovimiz Xalil moylovning lag'moniga ketayotgan edik, birdan qarasam, buning soyasi yoq! Rostdan yog'-ey! Hayro-o-on qoldim", deb boshlasa, men qolib, uni odam orab olar edi. Borib-borib uning hikoyasi boyib, boyib, oziga yod bolib ketdi, qiziqib kelgan odamlar, meni korgandan keyin albatta, unga ham uchrar edilar. Vaqt otib, uning gaplari ham zerikarli bolib qoldi.

Bu orada Mashhuradan umid uzib, institutiga bormay yurgan edim, tashvishlanib ozi keldi. "Tinchlikmi, yo mendan xaG' amisiz, na teleG'on qilasiz, na korinish berasiz?", deb opkaladi. Uning yosh tolayozgan ko'zlariga qarab, tomog'imga bir narsa tiqildi, axir, shunday qizdan ayrilish osonmi?

- Yuring, ko'chaga chiqaylik, - dedim vidolashuv ohangida.

- Yoq, shu erda ayting, nima boldi? – dedi u oxirgi gaplashishimiz ekanini kongli sezib.

- Boldi bir narsa, - dedim ozimni zorg'a tutib. – Ko'chada aytaman... korsataman.

Ozim yol boshladim, Mashhura es-hushi uchib menga ergashdi.

Oftob charaqlab turgan edi, mening baxtsizligimga butun dunyoni nurga toldirgan, hamma narsa oz tagiga soya tashlayotgan edi.

- Mana, qarang! – dedim.

Kozimga yosh kelganidan ozim Mashhuraga qaray olmadim, yuzimni teskari burdim.

- Koryapman, - dedi Mashhura qulog'im tagida.

- Nimani? – dedim, Mashhura bilan oxirgi korishuvim shu ekanidan konglim idrab.

- Soyangiz yoqligini! – dedi Mashhura.

Bor kuchimni toplab Mashhuraga qaradim, uning ko'zlari kulib turardi. yuragim hapriqib ketdi.

- Xosh? – deb g'uldiradim.

- Sizniki bolmasa, mana, meniki bor-ku!

Mashhura qoʻltigʻimga kirdi-da, ikkala qoʻli bilan mahkam changalladi.

- Mana, bitta soya boʻldik! Etadi ikkalamizga ham!

Bu charaqlab, olamni yorishtirib turgan Oftob ostida mendan baxtiyor odam yoʻq edi.

Kop oʻtmay toʻyimiz boʻldi, Oftob charaqlab turgani qoʻltiqlashib yuramiz, bizga qaragan birovning “juda madaniy er-xotin ekan” deb havasi kelsa, boshqa birovining ensasi qotadi, “Oʻ birodar, mahkamroq qoʻltiqlang, boʻlmasa qochib ketadi!”, deydi, men kulib Mashhurani mahkamroq qoʻltiqlayman, ikkovimizning soyamiz atigi bitta ekanini qaraganlar bilmaydi.

Yashab yuribman. Bulutli kunlari bemalol, oftob charaqlab turgan kunlari koʻchada hali ham bir-da yarim odam soyam yoʻqligini koʻrib, angrayib qoladi, beparvo otib ketaveraman. Baʼzilari toʻxtatib: “Ogʻayni, qiziq, sizning soyangiz yoʻqmi yo koʻzimga shunday koʻrinyaptimi?”, deb erinmay soraydi. “Qoysangiz-chi? Odamning ham soyasi boʻlmaydimi? Anavi yalpayib yotgan narsa soyam boʻlmay nima?”, deb soyam tushishi kerak boʻlgan joyga xuddi uni korayotgandek qarayman. Soragan bechora oʻsal boʻlib, oʻzining tomidan xavotir olib qoladi. Qizigʻ-ey, agar soyangiz boʻlmasa ham u xuddi bordek bemalol yursangiz, koʻrgan odamlar ham oʻz koʻziga ishonmay, sizni soyasi bor deb oʻylar ekan. Lekin uch-tort kishi birdan soyam yoʻqligini koʻrib qolsa, bunday qilish qiyin. Uch-tort kishi birgalikda “Koʻzimizga shunday koʻrinyapti shekilli”, deb ayta olmaydi, hatto ular har biri oʻzicha aqldan ozsa ham birgalikda birdek aqlli boʻlib qoladilar. “Mana, ogʻayni, uch-tort kishi koʻrib turibmiz, soyangiz yalpayib yotgani yoʻq, umuman, yoʻq”, deb turib oladilar. Mening ham tajribam oshib ketgan, soyam tushishi kerak boʻlgan joyga qarayman-da: “e-e, toʻgʻri, lekin oʻzi bor, ishxonamda. Hozir tushlikka chiqayotib, oyoqqa ilashib xalal beradi deb, ishxonaga tashlab keldim”, deyman. Haligilarni koʻrsangiz! Zavqim keladi: “Rost-da, erda sudraladi, xas-xashak ilashadi, kirlanadi, uni yuvib beradigan xotin hali yoʻq, oʻzim tozalayman. Soya oʻzi qora boʻlsa ham uni toza tutish kerak, axir!”, deyman. Oʻzlarining tomoshasi chiqadi, kalima qaytaradi yo shosha-pisha choʻqinib qoyadi.

Ishqilib, goh unday, goh bunday, bemalol yashab yuribman lekin...

Kop oʻylayman, mening soyam rostdan ham yoʻqolganmi yo bu voqealarning hammasini xayolimda oʻzim oʻylab topib, keyin shunga ishonib qolmaganmikanman? Unda haligi yozuvchilar osha kitoblarni yozgan-ku, men ularni oʻqiganman-ku, deyman. Shuncha narsani, odamlarni, ularning majlisda meni muhokama qilganlarini xayolimda toʻqiy olmayman-ku, soyasi yoʻqotgan odam boʻlsam ham shular bilan ishlab yuribman-ku, raykomda, undan yuqorida ishlaydiganlarni, bir gap bordirki, meni kuzatishga majbur qilyapman, ular gʻoyamni tekshirmoqdalar, nazoratda tutib turibdilar, deyman.

Bitta odam xayolida shuncha narsani oʻylab topib, keyin buni hayotga aylantira olmasa kerak. Ayniqsa shuncha kitobni. Butun boshli dunyo-ku. yana Shklovskiyning kitobida bir xitoy rohibining tush koʻrgani, tushida kapalakka aylangani, uygʻonganidan keyin, osha tushim tushmidi yo hozirgi hayotim

kapalakning korayotgan tushimikan, deb G'arqiga borolmay qolganini she'riyatning chiroyli misoli siG'atida tilga olib otilganini o'qiganman. Lekin uniki, unisi bo'lsa ham, bunisi bo'lsa ham, bari bir, tush. Bunaqa tushlarni bizning Barot ham koradi - bir kuni ertalab uyidan keldi-da: " Qizig'-ey! Bugun tushimda Hayotning tushini koribman!", deb talmovsiradi. Men Barotning shu kallasiga shunday chiroyli tashbeh kelsa-ya, deb hayrat bilan: "Hayotning tushi!", deb yuboribman. "Hayotning tushida men hali ham ikki yashar bola, korpachaning ustida yig'lab otirgan ekanman. Onam kelib: "Bo'ldi-da, Barotjon, quloqdan quloq qolmadi, deb qolinga kulcha beribdi. Kulchaga qolchalarimni uzatayotganda uyg'onib ketdim", dedi Barot. "e-e, og'lingni aytyapsanmi?", dedim. "Ha-da, otini otinga uyqash qo'yanman. Qara-ey, o'zimning shundayligimni tush korsam ham boshqa gap edi, tushimda, ey, aqling etyaptimi, Hayotning tushini koribman, uning tushida men Hayotdek yosh bolaman, yig'labman! Qizig'-a, nega bunaqa bo'ladi?", dedi Barot ma'yuslanib. Men indamadim. Insonning kongli juda sezgir, Barot o'ziga uyqash qilib ot qo'yan Hayotiga juda mehribon, hatto Hayotginam uxlaganda tush korsa, tushida yolg'iz qolib qorqmasmikan, deb ko'p oylagan, shuning uchun tushida og'lining tushiga kirib, uning holatida o'zini korgan. O'ziga tushuntirmadim, chunki aytganim bilan bari bir tushunmaydi.

Nima bo'lmasin, Barotniki ham, xitoy rohibiniki ham tush. Meniki esa esa hayot! O'ngimda bo'lyapti. Tushim bo'lganda, tushuntirib berardim. Tushunmayapman ham, tushuntirib ham berolmayman.

Soyam yo'q, lekin yashab kelyapman soyamni yo'qotgan bo'lsam-da...

1986 – 2000